

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDAN TA'LIM-TARBIYADA FOYDALANISHNING ZARURIYATI



Jumaboyev Nabi Pardaboyevich

Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berishi, ularning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashdagi o'rni xususida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: madaniy-axloqiy meros, mutafakkir, ajdodlar, ta'lim-tarbiya, tarbiyaviy meros, ma'naviy ozuqa, umuminsoniy fazilat, komil inson, qadriyatlar.

Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashda ajdodlarimiz o'gitalari, pand-nasihatlaridan foydalanish alohida pedagogik qiymatga ega. Shu bilan bir qatorda, so'nggi yillarda xalqning madaniy-axloqiy merosini o'rganish, mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimida qo'llash didaktik ahamiyatga ega bo'lmoqda [1:38]. Darhaqiqat, shunday ekan, yoshlar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qadriyatlaridan bahra olishlari kerak. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Chunki biz o'tmish tariximizni chuqur bilsak hozirgi davrimizning qadr-qimmatini samarali tushunamiz va kelajakka to'g'ri yo'nalish olamiz. O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.Karimov: Tarixni bilmagan, tarixdan saboq olmagan inson nafaqat olis va yaqin ajdodlarni qanday yashagani, o'zi mansub bo'lgan millat qanday shakllanganini, balki kelajagini ham tasavvur qilolmaydi. Shu zaminda etishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimizning merosi bilan tanish bo'lmasak, kelajagi buyuk davlat qurishimiz mumkinmi?... "Bizning kelajagimiz, ertangi kunimiz tarix bilan, kechagi hayot bilan uzviy bog'liq" [2:3], – deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, shu zaminda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimizning merosi kelajagi buyuk davlat qurishimizda, haqiqatni doimo yodda tutishda va bugungi hayotimizda dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Farzand tarbiyasi, kelajagi va manfaatlari haqida so'z borganda "Bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avnlardan birining qabrtoshi ustiga "Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi degan so'zlarning bitib qo'yilgani yoshlar tarbiyasi bashariyat taraqqiyotining barcha davrlarida hozirgidek asosiy muammolardan biri bo'lib kelganini tasdiqlaydi [3:6]. Barkamol inson, uning tarbiyasi haqidagi yuksak g'oyalar bayon qilingan zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboqlar borligini ko'rish mumkin.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida kishidagi ijobiy fazilatlar uni doimo kamolot sari yetaklashi, inson doimo o'z tarbiyasiga e'tiborli bo'lib yurishi zarurligi uqtililadi. Shuningdek, unda uyat-andisha va or-nomus, vatanparvarlik, xushmuomalalik, shirinso'z, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, o'z-o'zini hurmat qilish, ochiq yuzlilik hamda aqlli va dono, bilimli, xush xulq kabi jami 17 ta fazilatlar yoritilgan. Jumladan, uning:

Birisi shoshilmoq, biri-ko'zi och,
Biri jaholatdir, yaqinlashma, qoch.
To'rtinchi – yovuzlik, buzuq fe'llilik,
Oxirgisi – yolg'on, qo'pol tillilik.
Bulardan tubani yomon fe'l erur,
Yomon fe'l kishiga alamlar berur.
Ochiq yuz, shirin so'z, mayinlik kerak,

Fe'l-atvorda moslik, tayinlik kerak [3:9], degan misralari orqali xalqni g'iybat va yolg'on, tubanlik va qo'pollikdan uzoq bo'lib, shirinsuhan va chiroyli muomalada bo'lishlikka undaydi. Zero, bunday milliy fazilatlar yondashgan insonning oilasi mustahkam, o'zi esa baxtli bo'ladi.

Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [4:14] deb yozgan edi. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu bilan ma'naviy, axloqiy, estetik jihatdan yetuk, millatparvar, vatanparvar yosh avlodni voyaga yetkazish maqsadida ta'lim va tarbiyani kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratish kerakligini nazarda tutgan [5:303]. Zero go'zal xulq-atvor, insonparvarlik, sabr-qanoat, ilmu hunar o'rtasidagi ishtiyoq, mehnatsevarlik, donishmandlik, ozodlik, do'stlik, rostgo'ylik, mardlik, o'z burchiga sadoqat va Vatanga muhabbat kabi insoniy fazilatlar qadimdan xalqimiz orasida juda ulug'langan. Farzand tarbiyasi orqali aynan shu fazilatlar shakllanishiga alohida e'tibor berib kelishgan [6:108]. Shuning uchun ham ajdodlarimiz orasidan juda ko'p jasur sarkardalar, olimu fozil, donishmandu mutafakkirlar yetishib chiqqan.

Mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan Sharq madaniyatining tarixi, o'zbek ma'rifatining taraqqiyoti va XX asrdan bugungi kunga qadar ta'lim-tarbiya masalalari yo'nalishida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Sharq va G'arb xalqlari pedagogikasi, VII-VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogik qarashlar, Sharq Uyg'onish davridagi ta'lim-tarbiya va madaniyat kabi masalalar ilmiy-tarixiy jihatdan chuqur o'rganildi. Bu sohada "O'zbek pedagogikasi antologiyasi", O.Hasanboyeva, J.Xasanboyev, H.Homidovlarning "Pedagogika tarixi" darsligi kabi asarlar yaratildi [2:5]. Shuningdek, pedagogika sohasida bir qancha doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. S.Nishonovanning "Pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi tarixi" deb nomlangan ilmiy tadqiqotida inson tarbiyasiga oid fikrlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni yoritilgan. Muallif islom ta'limotida inson mohiyati va komil insonni ma'naviy shakllantirish yo'llarini aniqlagan. Tadqiqotda Sharq Uyg'onish davridagi qomusiy olimlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil etilgan va komil insonni tarbiyalash g'oyalari aniqlangan. Taniqli pedagog olimlarimiz O'.Aleulov, S.Xasanov, Z.Axrrova va boshqalar pedagogika tarixiga doir doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Jumladan, A.Axmetovanning "Yusuf Xos Xojibning pedagogik qarashlari", U.Seytjanovanning "Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'atit turk" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya", K.Qilichevaning "Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy qarashlari", M.Xajiyevaning "Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari" kabi nomzodlik dissertatsiyalarida o'tmish allomalarining ilm-ma'rifat, komil insonni tarbiyalash haqidagi g'oyalari ilmiy pedagogik jihatdan tadqiq etilgan. Asqar Zunnunovning oliy o'quv yurtlari uchun yozgan "Pedagogika tarixi" darsligida VIII asrdan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi pedagogik fikrning rivoji izchil yoritilgan. Tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Sharq mutafakkirlarining axloqiy-huquqiy tarbiyaga doir qarashlari tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz". Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq" [7] deya ta'kidlab o'tdi. Buning uchun albatta uzoq va boy tarixga ega

ajdodlarimizning tarbiyaviy merosidan foydalanamiz. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Boy pedagogik merosimizdan mustaqillik yillarigacha to'liq foydalanilmadi. Endilikda ma'naviy tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlarda bu durdonalardan to'laroq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu imkoniyatlar maktablar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, mahallalarda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni o'ziga xos ma'naviyat darslariga aylantirish uchun yaxshi sharoitlar yaratib berdi [8:7]. O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq va odob saboqlarini berganliklarini, Vatan va xalq istiqboli, farovon turmush va halol mehnat, fan taraqqiyoti va inson mehnati, atrof-muhit va tabiatga oqilona munosabat haqidagi o'zlarining qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz. Mutafakkirlarimizning yuqorida ta'kidlangan masalalar haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'quvchi yoshlar va talabalar uchun ma'naviy tarbiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish – oliy pedagogik ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi [9:144]. Zero, ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halolu-pok mehnati bilan kun kechirish, atrof-muhit va tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilib kelganlar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm va fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. T.: "Zamonaviy ta'lim" jurnali 5-son, 2007 y.
2. M.Shaxodjayev. Burhoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy qarashlari. Avtoreferat. T.:2006 y.
3. M.Farmonova. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy me'rosida farzand tarbiyasi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. T.: "Tasvir nashriyot uyi", 2020 y.
4. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.
5. Жумабоев, Наби. "THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.2 (2024).
6. K.Nosirov. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ajdodlarimizning madaniy meroslarini ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llash. Xalq ta'limi jurnali 5-son. -T.: 2017 y.
7. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
8. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.:2004 y.
9. J.Hasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov. Pedagogika nazariyasi (Didaktika). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Fan va texnologiyalar", 2011 y.